

## TEZ-TEZ BERILADIGAN SAVOLLARGA JAVOBLAR

Agar joy mulkdori umumiy mol-mulkiga ko'rsatilayotgan xizmatdan qoniqmasa majburiy badallarni to'lamaslikga huquqi bormi?

- Yo'q, agarda mulkdor uyga ko'rsatilayotgan xizmatdan qoniqmasa, u bu masalani shirkatning boshqaruvini, boshqaruv raisini saylash hamda ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish vakolatiga ega shirkat a'zolari umumiy yig'ilishiga kiritishi kerak.

### **Kimlar jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'idan ozod qilingan?**

O'zbekiston Qahramoni, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlari, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar; urush nogironlari va qatnashchilari; I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar; yolg'iz pensionerlar; boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar; Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar; energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar qayta tiklanadigan energiya manbalari o'rnatilgan oydan e'tiboran uch yil muddatga.

Soliq imtiyozlari yakka tartibdagi uy-joy qurilishi, dehqon xojaligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organda ro'yxatdan o'tkazgan jismoniy shaxslarga beriladi. Soliq imtiyozlari soliq to'lovchining tanlovi bo'yicha faqat bitta yer uchastkasiga beriladi. Soliq imtiyozlariga ega bo'lgan shaxslar soliq imtiyozlarini olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarini yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organlariga mustaqil ravishda taqdim etadi (*Soliq kodeksi 436-modda*).

### **"Yoshlar daftari"ga qanday oilalar farzandlari kiritiladi?**

"Yoshlar daftari"ga doimiy yoki vaqtincha yashash joyi bo'yicha o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan (o'ttiz bir yoshga to'lmagan) quyidagi toifadagi: oila a'zosi "Temir daftar", "Ayollar daftari" yoki "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kiritilgan; ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan; boquvchisini yo'qotgan, yetim yoki ota-onaga qaramog'idan mahrum bo'lgan; o'ziga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilangan; o'zgarar parvarishiga muhtoj bo'lgan ishga layoqatsiz; I yoki II guruh nogironligi bo'lgan; farzandida I yoki II guruh nogironligi bo'lgan; jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan; ota-onasidan birida I yoki II guruh nogironligi bo'lgan, ikkinchisi esa ish faoliyatini to'xtatgan holda bemorga qarashga majbur bo'lgan yoxud ota-onasining har ikkisida I yoki II guruh nogironligi bo'lgan;

yuzaga kelgan holatlar sababli og‘ir turmush sharoitida qolgan; zo‘ravonlik va ekspluatatsiya, tabiiy ofatlar, halokatlar, yong‘inlar va boshqa favqulodda vaziyatlar oqibatida hayotiga, sog‘lig‘iga, mulkiga zarar yetgan; “Mehribonlik” uyi, Bolalar shaharchasi yoki oilaviy bolalar uyida tarbiyalangan; haq to‘lanadigan ishga yoki ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan mashg‘ulotga ega bo‘lmagan; davolanishga muhtoj bo‘lgan bemor yoshlar; jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan; muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan; psixologik maslahatga muhtoj; nikohi qayd etilganiga uch yildan oshmagan yosh oila; dehqonchilik yoki tomorqa xo‘jaligini yuritayotgan; yosh tadbirkor yoki o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tgan yoshlar kiritiladi.

## **Pensiya va nafaqaning farqi nimada?**

Ko‘pchilik fuqarolar pensiya va nafaqa so‘zlarini bir xil tushuncha deb hisoblashadi. Ya‘ni “nafaqa” so‘zi “pensiya” so‘zining rus tilidan tarjimai deb tushunishadi. Aslida esa bu ikki so‘z ikki xil ma‘noni anglatadi. Xo‘sh, qanday deysizmi? Pensiya — uni olish huquqi “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan shartlarga va me‘yorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiga to‘lish, nogironlik yoki boquvchisini yo‘qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to‘lovi. Pensiya miqdori fuqaroning ish staji va ish haqiga muvofiq tayinlanadi.

Nafaqa — “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan shartlarga va me‘yorlarga muvofiq davlat pensiyasini olish huquqiga ega bo‘lmagan shaxslarga nafaqa yoshiga to‘lishi, nogironlik yoki boquvchisini yo‘qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to‘lovi. Nafaqalar qonunchilikda belgilangan qat‘iy miqdorlarda fuqarolarga to‘lanadi. Nafaqalar qonunchilikda belgilangan qat‘iy miqdorlarda to‘lanadi.

## **Chet elda ishlagan davr ish stajiga o‘tadimi?**

“Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq chet elda ishlash davrlari:

- mehnat shartnomasi asosida chet elda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ixtiyoriy ravishda 2019-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davr uchun — Pensiya jamg‘armasiga belgilangan sug‘urta badallari;
- 2019-yil 1-yanvardan 2019-yil 31-dekabr qadar bo‘lgan davr uchun — to‘langan yagona ijtimoiy to‘lov;
- 2020-yil 1-yanvardan keyingi davr uchun — ijtimoiy soliqlar to‘langan davr ish stajiga qo‘shib hisoblanadi.

Mehnat shartnomasi asosida chet elda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi o‘zi uchun mavjud imkoniyatlardan va pensiya bilan ta‘minlanishning miqdoridan kelib chiqib ijtimoiy soliqni to‘lashni quyidagi tartibda amalga oshirish huquqiga ega:

- har oyda yoki har chorakda;

- bir yo‘la — O‘zbekiston Respublikasiga kelgan kundan boshlab uch yil mobaynida.

Bunda shaxsning O‘zbekiston Respublikasiga kirib kelganlik fakti shaxsning pasporti va yoki O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining “Manzil” axborot tizimidan olingan ma’lumotlar asosida aniqlanadi. Mehnat shartnomasi asosida chet elda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 408-moddasida belgilangan tartibda ijtimoiy soliq to‘langan davr pensiya tayinlashda ish staji hisobida inobatga olinadi.